



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
to'garak rahbari

\_\_\_\_\_ning  
20\_\_-20\_\_-o'quv yiliga iqtidorli  
o'quvchilar uchun

**“SHE'RXONLIK”**

**TO'GARAK  
HUJJATLARI**

**To'garak a'zolari haqida ma'lumot**

<b>№</b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili (to'liq)</b>	<b>Ota-onasi (Ismi sharifi)</b>	<b>Telefon (uy yoki mobil)</b>	<b>Izoh</b>
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona \_\_\_\_\_





**“TASDIQLAYMAN”**

**MMIBDO‘**

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yiliga iqtidorli o‘quvchilar uchun tuzilgan “She’rxonlik” nomli  
to‘garagining  
ISH REJASI**

<b>№</b>	<b>Yillik ish reja mavzulari</b>	<b>Soat</b>	<b>Sana</b>	<b>Izoh</b>
1.	Shavkat Rahmon sh’erlari	1		
2.	Sirojiddin Sayyid	1		
3.	A’zam Obidov she’rlari	1		
4.	Hamid Olimjon Oygul bilan Baxtiyor (ertak doston	1		
5.	Alisher Navoiy «Hayrat ul-Abror» dostonidan parcha	1		
6.	Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy «Sayohatnoma»	1		
7.	Abdulla Avloniy	1		
8.	Abdulla Oripov O‘zbekiston qasidasi	1		
9.	Zulfiya she’rlari	1		
10.	G’ofur G’ulom hayoti va ijodi. Sh’erlari	1		
11.	Hamza Hakimzoda Niyoziy	1		
12.	Shuhrat she’rlari	1		
13.	Ibroyim Yusupov	1		
14.	Baxodir Iso	1		
15.	Halima Xudoyberdiyeva she’rlari	1		
16.	Mukarrama Murodova she’rlari	1		
17.	Muhammadsharif So‘fizoda	1		
18.	Haziniy Xo‘qandiy	1		
19.	Zavqiy	1		
20.	Muhammadrizo Ogahiy	1		
21.	Husayniy	1		
22.	Devoniy	1		
23.	Komil Xorazmiy	1		
24.	Pahlavon Mahmud	1		
25.	Atoiy	1		
26.	Zavqiy	1		
27.	Lutfiy	1		
28.	Turdi Farog‘iy	1		
29.	Xo‘janazar Huvaydo	1		
30.	Fuzuliy	1		
31.	Maxtumquli	1		
32.	Qambar Ota (O‘tayeV)	1		
33.	Turob To‘la			
34.	Abay			

Sana: “ ” 20 \_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_ To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Shavkat Rahmon sh’erlari

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta’limiy maqsad:** to‘garak a’zolari faolligi, mustaqilligini va she’riyatga bo‘lgan qiziqishini hamda so‘z boyligini o‘stirish, uning og‘zaki nutqini shakillantirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmi va zehni bo‘lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg‘ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiq to‘garak a’zolarini sifatli o‘qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Mashg‘ulot uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Mashg‘ulot metodi:** guruhlarda ishlash, “kim ephil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyg‘a vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**


Shavkat Rahmon 1950 yil 12 sentyabrda O‘sh viloyatining Qorasuv tumaniga qarashli Pomir mahallasida tug‘ilgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1996). Moskvadagi Adabiyot institutini tugatgan (1975). Dastlabki she’riy to‘plami — «Rangin lahzalar» (1977). «Yurak qirralari» (1981), «Ochiq kunlar» (1984), «Gullayotgan tosh» (1985), «Uyg‘oq tog‘lar» (1986), «Hulvo» (1988), «Saylanma» (1997) singari she’riy kitoblari e‘lon qilingan. F. G. Lorca («Saylanma», 1979), X. R. Ximenas, A. Alberti she’rlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. 1996 yil 2 oktyabrda Toshkent shahrida vafot etgan.

#### QASAM

Shavkat Rahmon degan  
bir o‘jar shoir,  
bir kuni qaytadan yaraladimi?  
Hayotim ma’nisin juda ko‘p o‘ylab,  
sayladim so‘zlarning  
saralarini.  
Har bir so‘z  
yuz so‘zning o‘mini bosar —  
Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik.  
Har bir so‘z yetajak yuzta umrimga,  
Har biri baxsh etar  
ruhimga shodlik.  
Hozirlik ko‘rarkan buyuk safarga,  
pushtirang pardali minglab darchadan  
mo‘ralab o‘tirgan go‘zal so‘zlarni  
qoldirib ketaman endi barchaga.  
Aslida atirgul bo‘yin taratgan  
bu o‘ynoqi so‘zlar menikimasdir.  
Menga nonday zarur qilichday keskir,  
zaharday mard so‘zlar bo‘lsayoq basdir.  
Sayladim so‘zlarning saralarini,  
kurashlar shamoli kirdi nazmimga.  
Yurtimni kezaman, endi har narsa –  
egilgan narsalar tegar g‘ashimga.  
Endi ishlash kerak bu kengliklarda,  
tokim so‘ylamasin yolg‘onni hech kim,  
tokim buyuk tog‘lar saltanatida  
egilgan boshlarni qilichlar kessin.

#### SO‘NGGI QISHLAR

Ispandiyorga  
Suq bilan tikilding,  
Talashding keyin,  
Qiz talashgan kabi dag‘al, jangari.  
Balki sog‘inchdandir,  
Balkim shunchaki  
Anordan zavqlanding bola singari.  
Anorni yemading,  
Sovuq fevralda  
Sen uni asrading,  
ko‘z-ko‘zlab, suyib.  
Bizlardan qizg‘onib, kulguli holda  
Yotding yostig‘ingning ostiga qo‘yib.  
Biz-chi, «qariya»lar,  
Yangi-da, derdik,  
Xayol ham qilmasdik tortib olishni.  
Sen birinchi qishni o‘tkazar eding,  
Biz-chi, o‘tkazardik beshinchi qishni.  
Keyin nima bo‘ldi, ha, keldi bir qiz,  
sochlari sap-sariq,  
ko‘zlari ko‘m-ko‘k.  
Anor sovg‘a qilding, quvondi cheksiz,  
Sen mamnun jilmayding, achinmading, yo‘q.  
Mana yillar o‘tdi,  
Eslayman seni,  
Sening ham ortingda so‘nggi qish qolar.



**IV. Mashg‘ulotni yakunlash:** to‘garak a’zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag‘batlantirish.

**V. Uyg‘a vazifani e‘lon qilish:** Shavkat Rahmon sh’erlarini yod olish va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

**Mavzu:** Sirojiddin Sayyid

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta‘limiy maqsad:** to‘garak a‘zolari faolligi, mustaqilligini va she‘riyatga bo‘lgan qiziqishini hamda so‘z boyligini o‘stirish, uning og‘zaki nutqini shakllantirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmi va zehni bo‘lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg‘ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiq to‘garak a‘zolarini sifatli o‘qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Mashg‘ulot uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Mashg‘ulot metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:**

a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:** Sirojiddin Sayyid 1958 yil, 30 oktyabrda Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi Kundajuvoq qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zbekiston xalq shoiri (2006). ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan (1979). Ilk she‘rlar to‘plami — «Ruhim xaritasi» (1985). Shundan keyin uning «Salqin xarsanglar kaftida» (1987), «Sevgi mamlakati» (1989), «Asragil», «Mehr qolur, muhabbat qolur» (1990), «Kuydim» (1994), «Vatanni o‘rganish» (1996), «Vatan abadiy» (2001), «Ustimizdan o‘tgan oylar» (2003) kabi she‘riy to‘plamlari nashr etilgan. A. Voznesenskiyning «Mangu rizq» (1990) asarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. «Do‘stlik» ordeni bilan taqdirlangan (1999).

## ILINJ

Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,  
Kipriklarim o‘psalar bas gardlaringdan.  
Men bir nasim bo‘lib keldim, men bir nasim,  
Aytib o‘tsam deymen ko‘hna dardlaringdan.

Almashdilar seni nomu rutbalarga,  
Munglug‘ bo‘lib qolding botib shubhalarga.  
Hilollaring qaytar yana qubbalarga,  
Moziylarga so‘ylab-so‘ylab zorlaringdan.

Menga qadim minorlardan bir sas yetar,  
Shul sas mening ko‘nglim oxir serfayz etar.  
Menga dunyo kerak emas, bir xas yetar  
Yassaviylar yotgan aziz yerlaringdan.

Oqsaroyga qay kunki yuz burgandim men,  
So‘nmish shonu shavkating deb kuygandim men.  
She‘r aytishni sal-palgina o‘rgandim men  
Chinorlarda yig‘lab yotgan barglaringdan.

Bu dunyoda ko‘ngillarga chirog‘ yoqsam,  
Mozorlaring sukutidan saboq olsam,  
Tiniqqina buloq bo‘lib oqib qolsam  
Olloyorlar nazar qilgan jarlaringdan.

## PAHLAVON MAHMUD

Sening hasratlaring uzun,  
She‘rlaring qisqa.  
Ne-ne gado ko‘rding,  
ne sulton ko‘rding.  
Nuh ming yil yashadi –  
Ko‘rdi bir to‘fon.  
Sen  
Nuh bo‘lmasang ham,  
ming to‘fon ko‘rding.  
Birovdan taxt qoldi,  
Birovdan — daraxt.

## ALAMLI DUNYODA

Qo‘llarim shoxlarday zor qolgan kunlar,  
Dil ketib, valekin or qolgan kunlar  
Sen ketding, muzladi o‘ng ila so‘lim,  
Alamli dunyoda alamli gulim.

Suvlarda sadosiz sindilar oylar,  
Afsunday jim, sokin okdilar soylar.  
Tugunlarin ochib yillar va oylar  
O‘tdilar, sen hamon tili tugunim,  
Alamli dunyoda alamli gulim.

Sendan so‘ng ko‘nglimni beomon yanchib,  
Ne suluvlar o‘tdi o‘zicha ranjib,  
Baland poshnalarin ko‘ksimga sanchib,  
Bevaqt so‘ldirdilar sehru jununim,  
Alamli dunyoda alamli gulim.

Mung‘ayib qoldilar umid bog‘lari,  
Mangu zirqiraydi bag‘ir dog‘lari,  
Bog‘larning dudlari hamda zog‘lari  
Mening fig‘onimdir ham mening kulim,  
Alamli dunyoda alamli gulim.

Bu holim ko‘rganlar taqdir, deydilar,  
Taqdir azal-azal hakdir, deydilar,  
Chin qalblar hamisha toqdir, deydilar,  
Qanday san’atdir bu, qandayin ilm?  
Alamli dunyoda alamli gulim.

Senga shamim shomlar munglar keltirib,  
Menga tiriklikdan aytib, bildirib,  
Kuygan ko‘klamlarning o‘rmin to‘ldirib,  
Ko‘ksimda yashaydi eng go‘zal o‘lim,  
Alamli dunyoda alamli gulim.



**V. Mashg‘ulotni yakunlash:** to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag‘batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** she‘rlarini yod olish va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.



Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_ To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu: A‘zam Obidov she‘rlari**

**Mashg‘ulotning maqsadi:**

**Ta‘limiy maqsad:** to‘garak a‘zolari faolligi, mustaqilligini va she‘riyatga bo‘lgan qiziqishini hamda so‘z boyligini o‘stirish, uning og‘zaki nutqini shakillantirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o‘quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmi va zehni bo‘lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg‘ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiq to‘garak a‘zolarini sifatli o‘qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo‘lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Mashg‘ulot uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Mashg‘ulot metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

**Mashg‘ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:** A‘zam Obidov 1974 yil, 8 noyabr kuni Namangan shahrida tug‘ilgan. Namangan davlat universiteti va Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetini tamomlagan. «Katha» Osiyo Ijodiy Festivali; Tasavvuf, an‘analar va she‘riyat anjumani (Hindiston, 2006), Ijodiy Dasturlar I Xalqaro Kongressi (Germaniya Federativ Respublikasi – 2005), Xalqaro Ijodiy Dastur (Amerika Qo‘shma Shtatlari – 2004) ishtirokchisi. «Sog‘intirib ketgum qadamlarimni», «Yo‘limni poylaydi mo‘ljiza» she‘riy to‘plami (ingliz va o‘zbek tillarida), «Dream of lightsome dawns» (Cho‘lpon va Usmon Nosir she‘riyatidan inglizcha tarjima), «Muhabbat, oqaver tomirlarimda» (N. Abdullaeva bilan) va yana bir qancha kitoblar muallifi.



### QO‘MSAYMAN

Vaqtim o‘tib ketdi, o‘qimoq uchun  
Qur‘onni qo‘limga olmog‘im kerak.  
Bo‘lmasam-da bu keng dunyoga ustun,  
Aqalli bir mullo bo‘lmog‘im kerak.  
Senda yashamoqdir mening istagim,  
Ayt, qachon qaytasan, o, o‘tgan zamon.  
Domlaning uzundan-uzun kaltagi  
Va eski maktabni qo‘msayman hamon...

### OYNING DUOSI

O‘tmish kunlar shiddati burok,  
Yolg‘iz gapga qolguvchi zamon,  
Faqat do‘kdan chiqarkan quruq,  
Soya solmish beparvo samo.  
Bu kunlarni ko‘rmagan Temur,  
O‘tmagandir uchqur otida,  
Ming xil ziynat, ming bitta qusur,  
Aytmoq mumkin qancha xotira.  
Sen o‘zingni o‘ngla, mehmonim,  
Bu kunlarning yo‘qdir qiyosi.  
Shukur, shukur, osiy dunyoni  
Asrayotir Oyning duosi!

### BU BIR DUNYO...

bu bir dunyo, ba‘zan hech narsa  
istamaysan istakni izlab,  
mazlum uchun chalinar qarsak,  
zolim to‘rga olingay sizlab.

bu bir dunyo, puling bori-da  
o‘ylamaysan aslingni aslo.  
bunda har kim ish bozorida  
qilgaydir o‘z bilgicha savdo.

bu bir dunyo, ko‘pdir bahona,  
gunoh uchun to‘kilmaydi yosh.  
devor borib tekkach peshona  
ibodatga egiladi bosh.

Bu bir dunyo — sarob dashtida  
Qurbonlikka so‘yilar qo‘zi,  
Bu bir dunyo — suvning ustida  
Ko‘pikligin bilmaydi o‘zi.

Bu bir dunyo...

**IV. Mashg‘ulotni yakunlash:** to‘garak a‘zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag‘batlantirish.

**V. Uyga vazifani e‘lon qilish:** A‘zam Obidov she‘rlarini yod olish va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: \_\_\_\_\_ To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu:** Hamid Olimjon Oygul bilan Baxtiyor (ertak doston)

**Mashg‘ulot maqsad:**

**Ta‘limiy:** O‘quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, dunyoqarashini shakllantirish.

**Tarbiyaviy:** O‘quvchilarga insonparvarlik, mehr-oqibat, ilmli va zehni bo‘lish, mehnatsevarlik, adolatparvarlik tuyg‘ularini singdirish, ularni insoniy xislatlar ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** O‘quvchilarni so‘z boyligini o‘stirish. Uning og‘zaki nutqini shakllantirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, tafakkur olamini kengaytirish.

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi

**Mashg‘ulot jihozi:** Mavzuga oid kitoblar, ko‘rgazmalar, mehnat qurollari, slaydlar

**Mashg‘ulot uslubi:** Aqliy hujum, izlanuvchanlik, interfaol usullar, savol-javob

**I. Tashkiliy qism.**

1. Salomlashish.


2. Davomatni aniqlash.

**II. O‘tgan mavzuni mustahkamlash:** O‘tgan mavzu yuzasidan savol javob orqali guruhlar bilan ishlab mavzu haqidagi fikrlar va umumiy hulosalar mustahkamlanadi. O‘quvchilarni qiziqtirgan mavzuga doir qo‘shimcha savollarga javob beriladi.

**III. Yangi mavzu bayoni.**

O‘zbek she‘riyatining yorqin vakillaridan biri Hamid Olimjon bor-yo‘g‘i 34 yil umr ko‘rgan bo‘lsa-da, o‘zidan boy adabiy meros qoldirgan. Uning asarlari jami o‘n jildni tashkil qilishi ham shoirning qanchalik sermahsul ijodkor bo‘lganini ko‘rsatadi. Hamid Olimjon qobiliyatli rahbar va olim ham edi. U o‘ttiz yoshga yetar-yetmas O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasini boshqardi, o‘ttiz uch yoshida akademik unvonini oldi.

Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug‘ildi. Jizzax ham yurtimizning Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalari singari ko‘plab xalq baxshilarining vatani hisoblanadi. Bu yerdagi xalq sayillari, to‘ylar, turli yig‘inlar hozir ham baxshilar ishtirokisiz o‘tmaydi.



Hamid Olimjon bu zavqli tunlarni bir umr yodda saqlab qoldi va o‘zi yozgan dostonlardan biri – «Oygul bilan Baxtiyor»da bu sehrlilarni shunday esga oldi:

*Bolalik kunlarimda,*

*Uyqusiz tunlarimda*

*Ko‘p ertak eshitgandim,*

*So‘ylab berardi buvim.*

*Esimda o‘sha damlar:*

*O‘zi uchar gilamlar,*

*Tohir-Zuhra, Yoriltosh,*

*Oyni uyaltirgan qosh...*

*Buvimning har qissasi,*

*Har bir qilgan hissasi*

*Fikrimni tortar edi,*

*Havasim ortar edi.*

Doston, hikoyamiz boshida aytganimizdek, shoirning bolalik davri esdaliklari bilan boshlanadi.

Uzun tunlar jim yotib onasidan tinglagan ertaklarni eslar ekan, shoir ularning kuchini o‘zida sezganini aytadi.

Aziz bolalar, shu o‘rinda bir muhim masalaga e‘tiboringizni tortmoqchimiz. Gap shundaki, garchi shoir «Oygul bilan Baxtiyor» ertagini onasidan eshitganini aytsa-da, bugun Siz o‘qiyotgan ertak-dostonning chuqur mazmuni, go‘zal satrlari uni badiiy qayta ishlagan shoir mahoratining mevasi ekanini aslo unutmasligimiz kerak.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash** O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilarni savollariga javob beriladi ularga Oygul bilan Baxtiyor dostoni haqida olayotgan bilimlari va tushunchalari haqida so‘ralib bir birlari bilan tasurotlarini o‘rtoqlashadilar

**V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish mashg‘ulotni yakunlash:** Mashg‘ulot yakunida , mashg‘ulotda faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlantirish, mashg‘ulotni yakunlash .

**VI. Uyga vazifa:** Oygul bilan Baxtiyor dostonidan yod olib kelish

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi*

*48 listdan iborat "She'rxonlik" nomli iqtidorli o'quvchilarga 34 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.*




**Narxi: 20 ming so'm**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



## **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**